

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlarini	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nohiziqi tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyofasi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarining o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

TARIH

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

LINGVOKULTUROLOGIYADA KONSEPTUAL TAHLIL METODOLOGIYASI

МЕТОДОЛОГИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО АНАЛИЗА В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

CONCEPTUAL ANALYSIS METHODOLOGY IN LINGUOCULTUROLOGY

Umarova Nargiza Rustamovna¹, Tojiboyeva Mohinur Sherali qizi²¹Umarova Nargiza Rustamovna

– Farg'ona davlat universiteti, f.f.d.professor v.b.

²Tojiboyeva Mohinur Sherali qizi

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada lingvokulturologiyada konseptlarni tahlil qilish usullari ko'rib chiqilgan bo'lib, avvalo konsept vakilini tanlab olish tavsiya etiladi. Lug'at ta'riflarini tasniflash orqali konseptual komponentni aniqlaniladi va ular bilan bog'liq ramziy, kinoya, metaforik ma'nolari ko'rib chiqiladi. Ma'lum bir til madaniyatiga xos bo'lgan stereotiplarni tavsiflash orqali tahlilga tortilgan konseptning konseptual va majoziy belgilari bilan yaqindan tanishish imkonini yaratadi. Konseptlarni tahlil qilish orqali ularning ma'lum bir lingvomadaniyatdagi xususiyatlarini umumlashtirib, vaqt o'tishi bilan ularda sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida xulosa chiqarish mumkin.

Аннотация

В этой статье рассматриваются методы анализа понятий в лингвокультурологии, при этом рекомендуется сначала выбрать представителя понятия. Путем классификации словарных определений определяется понятийный компонент и рассматриваются связанные с ними символические, иронические, метафорические значения. Характеризуя стереотипы, характерные для конкретной языковой культуры, позволяет ближе познакомиться с понятийными и образными признаками понятий, привлекаемых к анализу. Анализируя понятия, можно обобщить их особенности в той или иной языковой культуре и сделать вывод об изменениях, происходящих в них с течением времени.

Abstract

This article discusses methods for analyzing concepts in cultural linguistics, and it is recommended to first select a representative of the concept. By classifying dictionary definitions, the conceptual component is determined and the symbolic, ironic, and metaphorical meanings associated with them are considered. Characterizing stereotypes characteristic of a particular linguistic culture allows us to become more familiar with the conceptual and figurative characteristics of the concepts involved in the analysis. By analyzing concepts, one can generalize their features in a particular linguistic culture and draw conclusions about the changes occurring in them over time.

Kalit so'zlar: konsept, lingvokulturologiya, kognitivtilshunoslik, konseptualtahlil, lug'atta'rifi, metafora, majoziy ma'no.

Ключевые слова: понятие, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, концептуальный анализ, определение словаря, метафора, переносное значение.

Key words: concept, linguoculturology, cognitive linguistics, conceptual analysis, dictionary definition, metaphor, figurative meaning

KIRISH

Lingvokulturologiyada til asosiy tushunchalarni, ya'ni konseptlarni shakllantirishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Konsept orqali so'z inson ongiga, uning boshqa leksik birliklar bilan o'zaro ta'siri sodir bo'lgan dunyoning lingvistik olamiga kirib boradi.

Dunyoning lingvistik manzarasini tavsiflashda, til olami va milliy mentalitetni shakllantiruvchi xalq ongidagi ma'naviy meros, lisoniy manzara va milliy mentalitetni tashkil etuvchi tevarak-atrofdagi olamni anglash natijalarini tadqiq qilishda konseptlar markaziy kategoriya hisoblanadi.

Qayd etish joizki, lingvokulturologiyaning fan sifatida jadal shakllanishi va shiddat bilan rivojlanishi ma'lum darajada "lingvomadaniy tahlil" atamasining umumlashtirilgan ta'rifining yo'qligiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, E. I. Zinovyeva va E. E. Yurkov bu atamani turli metodarni anglatish(ifodalash)da qo'llaydilar: lug'at maqolalari applikasiyasi, diskurs va konseptual tahlili va boshqalar

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Konseptual tahlil" tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda ham noaniq talqinga ega bo'lib, S.E.Nikitina ta'kidlaganidek, konseptlar tahlil muayyan turdagi tadqiqotni konseptlar yordamida tahlil qilishni, shuningdek, cheklovchi birlikni tashkil etuvchi tahlilni ham ko'zda tutishi mumkin.

TILSHUNOSLIK

E.E.Yurkov va E.I.Zinovyeva konseptual tahlilni konseptlarni analiz qilish deb tushunsalar, uning doirasida mavhum nomlar va xayoliy sohalarning (V.A.Dolinskiy, L.O.Cherneyko) mosligini o'rganishga hamda S.E.Nikitina tomonidan taklif qilingan bir xil madaniyatga mansub qolgan konseptlar (sintagmatik va paradigmatic darajalarda) bilan aloqasini aniqlashga qaratilgan keng qamrovli tadqiqot metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Konseptlarni o'rganish uchun konseptlarning mazmuni va tuzilishini, konseptlarning mazkur madaniyatdagi semantik imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqot yondashuvlari tizimi qo'llaniladi. Teliya aytganidek: "Konseptual tahlilning ma'nosi konsept mohiyatini anglash yo'lini kuzatish va natijani rasmiylashtirilgan semantik tilda yozib borishdir". Konseptni tahlil qilish konseptlarni tavsiflashning o'ziga xos bir usuli emas, balki turlicha tadqiqot usullarining kombinatsiyasidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida aytib otilgan metodlar aprobatsiya natijalarini tanqidiy ko'rib chiqish olimlarni konseptni o'rganish bosqichlarini tizimlashtirishga undadi va ularni quyidagi tartibda taqdim etish mumkin:

- a) lug'at ma'lumotlarini tahlil qilish;
- b) berilgan so'zning mosligini distributiv tahlil qilish yordamida qo'shimcha konseptual belgilarini aniqlash;
- d) chuqur ma'noni aniqlash uchun so'z-konseptning kelib chiqishini o'rganish;
- e) asosiy so'zning so'z yasovchi hosilalarini o'rganish;
- f) paradigmalar darajasida tilning konseptosferasida konseptning bog'lanishlarini aniqlash;
- g) qo'llanishlarni metaforik ma'noda tahlil qilish;
- h) assotsiativ lug'atlardan foydalanish va yoki o'rganilayotgan so'z-konseptning tasavvuriy maydonini aniqlash uchun assotsiativ eksperiment(tajriba) o'tkazish.

I.A. Sternin "Kognitiv tilshunoslikning metodologik muammolari" asarida lingvistik ma'lumotlarni o'rganish orqali tushunchalarni lingvokognitiv tavsiflashning asosiy usullari quyidagicha izohlaydi:

1. Mazkur konseptni tilda ifodalovchi kalit so'zni, konseptning asosiy reprezentatsiyalari (berilgan tushunchaning "nomi"ni) aniqlash.
2. Tildagi tushunchani verbalizatsiya qiluvchi kalit so'zning semantik mavzusini qurish va tahlil qilish (lug'at talqinlarini turli turdagi lug'atlarda tahlil qilish).
3. Tegishli konseptning eng muhim xususiyatlarini belgilash uchun kalit so'zning leksik mosligini tasniflash.
4. So'zning rivojlanish jarayonida uning ko'p ma'noliligini o'rganish so'zning yangi ma'nolarining paydo bo'lish ketma-ketligini tahlil qilish o'rganilayotgan konseptning so'zlar rivojini belgilovchi xususiyatlarini aniqlash imkon beradi.
5. Muayyan so'zning leksik-frazeologik sohasini o'rganish, so'zning sinonim va antonimlarini tahlil qilish, uning giperonimi va sogiponimlarini aniqlash.
6. Kalit so'zning derivatsiya sohasini o'rganish.
7. Muayyan so'zning leksik-grammatik sohasini qurish.
8. Eksperimental usullarni qo'llash.
9. Paremiyalar va aforizmlar tahlili, shuningdek o'rganilayotgan kalit so'zni ham va shu bilan birga konseptning nomi mavjud bo'lmasada, u keltirib chiqaradigan konseptni baholashni ham o'z ichiga oladi, (mazkur uslub ushbu hodisaning xalqona talqinini yaxshi namoyon etadi).
10. Konseptning tarkibida ramziy ma'no kasb etgan xususiyatlarni aniqlash uchun badiiy asarlarni tahlil qilish; shuningdek, badiiy matnlardagi muallif foydalangan o'ziga xos konseptlarini aniqlash yozuvchi dunyoqarashining o'ziga xosliklarini chuqurroq anglashga imkon berishi mumkin.
11. Yozma va og'zaki so'zlarning qo'llanilishini tahlil qilish.
12. Konseptni ma'lum bir mantiqiy sinfga (masalan, daraxtlar sinfga yoki qushlar sinfga) kiritish uchun zarur va yetarli bo'lgan xususiyatlar to'plami sifatida tavsiflash.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, konseptni tushunishga lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar bir-birini istisno qiluvchi xususiyatlarga ega emas. Zero, konsept shaxs ongida mental shakllanish sifatida jamiyat konseptosferasiga, ya'ni pirovardida madaniyatga chiqish ekanligi isbotlangan; shu bilan birga, madaniyat birligi vazifasini bajaruvchi konsept shaxsning

mulkiga aylanuvchi jamoaviy tajribaning o'rnatmasidir (fiksatsiya). Binobarin, bu yondashuvlar orasidagi yagona farq ularning shaxsga nisbatan vektorida aks etadi: madaniyatdan individual ongga yo'nalish lingvomadaniy konseptga xosdir, individual ongdan madaniyatga yo'nalish esa lingvokognitiv konseptning vakolati hisoblanadi. Ushbu differentsiatsiya aloqaning generativ va izohli modellari bilan taqqoslanadi, o'ziga xos vektor bo'linishi aslida tadqiqot usulidir, faqat amalda esa yuqorida tavsiflangan harakat butun boshli ko'p o'lchovli jarayondir

XULOSA

Shunday qilib, konseptlarni tahlil qilish orqali ularning ma'lum bir lingvomadaniyatdagi xususiyatlarini umumlashtirib, vaqt o'tishi bilan ularda sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida xulosa chiqarish mumkin. O.A.Ksenzenkoning ta'kidlashicha, "muayyan vaziyatlarda kommunikativ xatti-harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari" va "muayyan kommunikativ makonning madaniy fonining ahamiyati" kabi munozarali masalalarni o'rganish "yangi sohalarni, shu jumladan kognitiv lingvistikani rivojlantirish"ga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, konseptlarni yangi yo'nalishlarga muvofiq o'rganish ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini yoritilishiga turtki bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лукин В.А. Концепт истины и слово истина в русском языке (опыт концептуального анализа рационального и иррационального в языке) // Вопросы языкознания, 1993. – № 4. – С. 63.
2. Карасик, В.И. Языковые ключи / В.И. Карасик. – М.: Гнозис, 2009. – С.117.
3. Никитина, С. Е. Концептуальный анализ в народной культуре // Логический анализ языка: Культурные концепты. М., 1991. С. 101.
4. Пименова, М. В. Методология концептуальных исследований // Антология концептов / Под ред. В. И. Карасика, И. А. Стернина. Волгоград: Парадигма, 2005. – С. 15–19.
5. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. С.97.
6. Зиновьева Е.И. Понятие «Концепт» в отечественном языкознании: основные подходы и направления исследования // Вестник СПбГУ. Серия 2. История. 2003. С.41 №2. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-kontsept-v-otechestvennom-yazykoznanii-o-snovnye-podhody-i-napravleniya-issledovaniya> (дата обращения: 12.05.2020).